

AMIR OLIMXONNING MUHOJIRLIKDAGI HAYOTI TURK
TARIXSHUNOSLIGIDA

Nuriddinova Aziza Ilhomovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Tel: +998906378622

E-mail: nuriddinova2298@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroning so‘nggi amiri Said Olimxonning muhojirlikdagi hayoti, uning avlodlari taqdiri haqida ma’lumot keltiriladi. Shuningdek, amirning vatandan yiroqda bo‘lsada Buxoroni ruslardan ozod qilish jarayonidagi jasorati hamda uning bunyodkorlik sohasidagi faoliyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Известия”, “Yosh Turkiston”, qal’ai Fotuh, Xurjun madrasasi, “Amerika ovozi”, “Buxoro xalqining hasrati tarixi”.

Nurettin Hatano‘g‘lu o‘z tadqiqotlarida, “Olimxon Afg‘onistonda noma’lum bir tutqunlikda hayot kechirdi. Hukmdorlik va surgunlik davrida Buxoro hukmdorlari orasida eng ko‘p tanqid qilingan hukmdor Olimxon bo‘ldi. Buning bir qancha sabablari bor. Olimxon hukmronligi o‘rnida tashkil etilgan Buxoro Xalq Respublikasi (BXR) a‘zolari ham, bolsheviklar tomonidan boshqarilgan kompaniyalar ham Olimxon haqida salbiy fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. BXR hukumati a‘zolari muxolifatchi ekanliklari va unga qarshi siyosiy kurash olib borayotganlari uchun tabiiy ravishda tanqid qildilar. Bolsheviklar esa Olimxonning Buxoro zaminida olib borilgan faoliyatini yo‘q qilish va jamoatchilikni o‘z tomoniga og‘dirish uchun hamkor tashkilotlar tashkil etdilar”- deb ma’lumot berib o‘tadi.¹

Olimxonning o‘g‘li Shoh Murodning 1929-yil 16-iyun “Известия” gazetasidagi otasining taxtdan voz kechishi bilan bog‘liq salbiy fikrlari va boshqa davlatlar bilan hamkor sifatida ayblashi bolsheviklarning tuhmat qilishi uchun yaxshi misol bo‘ldi. Sovetlar ittifoqidan boshqa hamkorlarining eng muhim markazi Olimxon yashagan Kobul bo‘lgan. Olimxonning Chor davrini maqtashi va Buxorodan boshqa istilochilik harakatlaridan uzoq turishi, Turkistonlik millatchilarning ham Olimxonga qarshi salbiy munosabatlariga olib keldi. Turkiston millatchi vakillari Olimxonning Chor Rosiiasini maqtab, bolsheviklarga qarshi Chor davri hukmdorlari bilan hamkorlik qilishini zaiflik sifatida baholaganlar.²

¹ Nurettin Hatuno‘g‘lu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirligi ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 109-bet

² Ensar Göçmeza Afganistan‘dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 24-bet

Turkiston vakillari oz vaqtdan keyin Turkiya, Germaniya, Fransiya kabi boshqa mamlakatlarga ketishi va bu munosabatlarini saqlab qolishlari Olimxon haqidagi salbiy fikrlarning keng hududga yoyilishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1927-yilning iyun oyida Turkiyada yoyilishni boshlagan, Osman Kocaoğlu va bosh muharrirlikni qilgan Z. Validi Tog'aning "Yangi Turkiston" gazetasining 2, 5 va 6-sahifalarida alohida nashr etilgan, "Turkiston Istiqlol Harakatiga qarshi Buxoro Amirligi" sahifasining chiqishi bu holatga na'munalardan biridir. Xuddi shu shaklda Fransiyada nashr etilgan "Yosh Turkiston" gazetasida ham Olimxonga qarshi maqolalar yozildi.³

BXSR ma'murlariga kelsak, ular o'zlari ag'dargan Olimxonga qarshi bo'lib, yozgan maqolalarida Olimxon va uning ma'muriyatini har sohada tanqid qilganlar. Bolshheviklarning yordami bilan hokimiyatni qo'lga olgan vaqtlarda bu masalada sheriklik qiladilar va u davrda yozgan asarlarida Olimxonning shaxsiyatini va boshqaruvini tanqid qilganlar. U davrdan hozirgi kunimizgacha Olimxonga qarshi asarlarning mavjudligi muxolifatchi asarlarning nashr etilishini rag'batlantirish bilan bog'liq. Masalan, o'sha davrning muhim mutaffakirlaridan bo'lgan va Olimxonning davrida yozgan asarlari Buxoro Amirligi uchun muhim manba hisoblangan Abdurauf Fitratning (1992) "Amir Olimxonning hukmdorlik davri" nomli asarining kirish qismida:

"Tojigiston Davlat Nashriyoti ko'p vaqtdan beri Olimxonning hayoti va hukmronlik davrida qilgan nomaqbul xatti-harakatlarini bir risolada jamlab nashr qilishni rejalashtirdi. Bundan maqsad, bizning ijtimoiy inqilobimiz xalqni zulmdan qanday qutqarganining namoyishidir. Nashriyot bu maqsad yo'lida ancha vaqt dalillarni to'pladi. Nihoyat to'plangan materiallarni menga berib, ularni ishlab kitob holiga keltirishimni istadilar. Bu ish mening mutaxassisligimga mos kelmasada Buxoroda yashashim va Olimxonga qarshi faoliyat olib borgan inson bo'lganim uchun bu taklifni rad etishni o'rinli ko'rmadim. Oxirida bu materiallardan foydalanib bu kitobni vujudga keltirdim"-deya takidlaydi.⁴

Fitrat va unga o'xshagan ziyolilar tarixiy faktlarni yuzaga chiqarishdan ko'ra, tuhmat va tashviqot ishlari bilan shug'ullanganligi ma'lum bo'ldi. Bu sabablarning barchasi jamlanganda, Olimxonning dunyoqarashi va shaxsi haqida uning xoin, zolim, yangilikka qarshi, sivilizatsiya dushmani, qobiliyatsiz, siyosatdan yiroq, xudbin, milliylikdan xoli hukmdordir. Biroq Olimxon ba'zi yo'nalishlardan kamchiligi bo'lsada, siyosiy yurishlarda tilga olingan barcha xususiyatlarni o'zida jamlagan shaxsga munosib emasdir. "Olimxon qanday siyosiy qarash va shaxsiyatga ega edi"-deya savol berilganda, quydagi javoblar keltiriladi: "Buxoro amirligi diniy tamoyillar

³ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirligi ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 113-bet

⁴ Ensar Göçmeza Afganistan'dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 43-bet

asosida boshqarilgan. Mullalar roziligisiz hokimiyatni qo‘lga olish mumkin emas edi. Olimxon din va davlat ishlarini ajratish tarafdori edi. U yangiliklarga va kelishuvga ochiq, dindor odam edi. U xotirjam xarakterga ega edi, asabiylikni ko‘rsatmas edi. Bundan ko‘rinib turibiki Olimxon muloyim tabiatga ega edi. U voqealarga ijobiy yondashgani, halol bo‘lganligi uchun ham ba‘zan aldanar edi. Masalan, u o‘z xotiralarida ta‘kidlaganidek, ruslar bilan shartnoma tuzib, ruslarga tayanib, Kogonda o‘z strategik mavqeidan voz kechdi, biroq ruslar bu kelishuvga amal qilmay, urush e‘lon qilmay turib, Buxoro amirligiga hujum qilishdi. Olimxon aldanganligini tushundi. Hatto ba‘zi moliyaviy ishlar bo‘yicha yordamchilari ham uning ishonchini poymol qilgan. O‘zi ishongan To‘raqulbey ham shunday yo‘l tutgan.⁵

Olimxon haqidagi eng ko‘p tanqidlar jadidlar tomonidan berildi. Jadidlarning so‘l tabaqasi uni ozodlik dushmani, xalqni qiynovchi feodal sifatida ayblagan bo‘lsa, millatchi tabaqasi uni qulagan podsholikning sodiq xizmatkori sifatida tanqid qilgan. Olimxon o‘rta asr qonun-qoidalari bilan boshqariladigan davlat hukmdori edi. U bu tuzilmani o‘zgartira olmagan sababli, o‘z raqiblari tomonidan mag‘lub qilindi. Bu borada so‘llarning tanqidlari asosli edi.⁶

Olimxonning jadidlarga munosabati ziyoli emas, siyosiydir. Uning o‘g‘illaridan biri Abdulkebir Azmi (2002) Afg‘onistonda futbol o‘ynashni gunoh deb hisblangan bir paytda, Olimxon turkistonlik muhojirlarga qal‘ai Fotuhda futbol jamoasi tashkil qilib, o‘yinlarni o‘zi ham tomosha qilgan. Chunki u Peterburgda tahsil olgan, dunyoda bo‘layotgan voqealardan xabardor inson edi. Olimxon tomonidan Yevropaga yuborilgan Hoji Yusuf Bey ham “Le Journal de Geneve” gazetasida chop etgan maqolasida Olimxonning xorijda tahsil olgani va bir qator konlarni ishga tushirish orqali mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga harakat qilayotganini aytib, fuqarolik jamiyati taraqqiyotiga qarshi emasligini tushuntirishga harakat qildi.⁷

Olimxonning Afg‘onistondagi hayotiga to‘xtaladigan bo‘lsak, urush natijasida sarosimaga tushgan Olimxon va asirlikka tushgan boshqa sulola a‘zolari ham qochib Olimxon bilan Afg‘onistonga keladi. Afg‘oniston hukumati tomonidan amir Olimxon hamda uning xamroxlari uchun Husayn kavt bog‘i ajratib berildi. Amir uchun 12 ming afg‘oni maosh ajratildi. Istiqomat joyi Hoshimxon bog‘iga, bir yildan keyin esa, murodbek qal‘asi bog‘iga o‘zgartirildi. Amir Olimxon qarorgohi to‘rt oydan keyin Xashmat qal‘asi bo‘ldi. Oxiri Kobuldan o‘n bir kilometr uzoqlikda joylashgan qal‘ai Fotuhda yashay boshlaydilar. Afg‘on hukumati tomonidan amir xavfsizligini

⁵ Nurettin Hatunoğlu, “Buhara Hanlığı’nın Son Emiri Alim Han’ın Vasiyeti ve Hazinesi”, Türk Dünyası Tarih Kültür Dergisi, S. 254, Şubat 2008, ss. 47-53

⁶ Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Egmont Yay. Istanbul, 2009. 76-bet

⁷ Ensar Göçmeza Afganistan’dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 52-bet

ta'minlash uchun unga Futuh qal'asidan tashqariga chiqish taqiqlandi. Agar zarurat yuzasidan tashqariga chiqishga to'g'ri kelsa, maxsus bir guruh tayinlanib, uni muhofaza qilib borar edi. Bu holat amir Olimxonning tashqi dunyo bilan aloqasini uzib qo'yish uchun qilingan bir tadbir edi.⁸

Omonulloxon Said Olimxonni Kobulga taklif qilgach, ruslar ishonch bilan harakatlana boshlaydilar. Buxoro amiri Kobulga kelgach Omonulloxon betaraf bo'lishini ma'lum qildi. Biroq u ruslar bilan do'stona munosabatga kirishdi. Afg'oniston hukumati Rossiya bilan munosabatlarini tobora kengaytirib bordi. Rossiya muxoliflarini Afg'oniston muxolifi deb hisoblab, Rossiyani sharq xalqlari hamda Afg'onistonning yagona do'sti, ularning yagona dushmani esa, ingliz mustamlakachilari deb hisobladi. Kobulga kelgan dastlabki davrlarida Said Olimxon Omonullaxonga ruslardan yiroq bo'lishini maslahat bergan edi. Biroq, Omonullaxon bu maslahatga quloq solmay kundan-kunga Lenin bilan munosabatlarini yaxshilashga harakat qildi. Bu holatning davom etishi esa, afg'on millati tomonidan Omonullaxonning kofir deb e'lon qilinishiga olib keldi. Omonullaxonning Said Olimxonga nisbatan samimiy va iliq munosabatlari bora-bora sovuqlasha boshladi. Hattoki Omonullaxon bergan va'dalarini unutdi va amirga ajratilgan maosh hamda sarf-xarajatlarni ham kamaytirdi. Buxoro amirining maoshi va imtiyozlari kommunistik sho'rolar tomonidan Omonullaxonga to'lab berib turildi.⁹

Afg'onistonga kelgan dastlabki kunlaridanoq Said Olimxon o'zining bir guruh vakillari yordamida Britaniya Hindistonidan, Eron va Afg'onistondan o'z mablag'lari hisobiga bir qancha qurol-aslaha sotib oldi. Bu qurol-aslahalarni hamkorlari orqali Buxoroga yubordi. Bu vaqtda "Ibrohim laqay" nomi bilan mashhur bo'lgan mulla Ibrohimbek Buxoro jangchilariga rahbarlik qildi. U ko'ngillilardan bo'lib, quruq qo'l bilan bo'lsada bolsheviklarga qarshi kurashdi. Ibrohimbek "Olloh" kalimasini yagona maqsad deb bilib, uni shiorga aylantirdi. Mulla Ibrohimbek amir bilan birga Afg'onistonga ketmasdan, Buxoroda qoldi va dushmanga qarshi kurashni davom ettirib, Amir Olimxon bilan aloqada bo'lib turdi. Afg'onistondan yuboriladigan qurol-yarog' va yordamni kutdi. Amir Olimxon shaxsiy mulkidan sotib olgan qurol-yarog'larni Buxoroga jo'natdi. Bularning barchasi dastlab Mulla Ibrohimbekka kelib tushardi, keyin esa boshqa mujohidlarga tarqatilar edi. Said Olimxon tomonidan Buxoroga qurol-yarog' jo'natilayotganini josuslari orqali bilgan Omonullaxon, Afg'oniston hukumati chegarachilarga afg'on tuprog'idan qurol olib o'tilishini to'xtatishga buyuruq beradi. Shundan so'ng amir tomonidan yuborilayotgan qurollar

⁸ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirligi ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 117-bet

⁹ Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Egmont Yay. Istanbul, 2009. 84-bet

chegarachilar tomonidan olinadi. Ba'zan tortib olingan qurollar Buxoroga ikki barobar qimmat narxda qayta sotiladi.¹⁰

Bu vaziyatda Buxoro amirini yanada tutqunlikda tutishga harakat qilindi. Amir Olimxon o'z qo'riqchilari bilan Fotuh qal'asidan 11 km uzoqqa bora olmas edi. Faqatgina yoz va qish fasllarida amir Pagmon yoki Jalolobodga afg'on hukumatidan ruhsat olib chiqa oladi. Tutqunlik va Buxoroga yordam jo'nataolmayotgan amir bunday qiyin vaziyatda har tomonlama chora izlaydi. Amir buning yechimini qimmatbaho yirik olmoslari mavjud bo'lgan bir dona murassa tojini va o'ziga in'om qilingan Futuh qal'asining bir qismini sotib olish hamda Buxoroga qurol-yarog' jo'natib turishga ijozat berilishi uchun Omonullaxonga taqdim qildi. Qimmatbaho yirik olmoslar va javohirlar bilan bezatilgan ushbu toj qiymatiga bir nechta qal'ani satib olish mumkin edi. Ushbu holatdan keyingina Afg'onistondan qurol jo'natish yana ijozat berildi. Biroq afg'on chegarachilari ularni turli bahonalar bilan ushlab qolishda davom etdi. Ibrohimbek esa ruslarga qarshi kurashni davom ettirdi. Ammo qurol yetishmaganligidan qiynaldi. Kunduz kunlari chegaradan qurol olib o'tish cheklandi va to'xtatildi. Ibrohimbek safdoshlari tog'larda yashirinib, tunda ruslarga hujum qilib, ularning qurollarini o'lja sifatida olishdi.¹¹

Ruslar bu vaziyatdan charchadi hamda tashvishga tushib turli xil usullar qo'lladi. Ruslar Ibrohimbekni tazyiq o'tkazish yo'li bilan qo'lga olishmoqchi edi. Shu maqsadda zulm va tazyiqni kundan kunga kuchaytirishdi. Jumladan, bir tunda ruslar Buxoroning yosh kommunistlari bilan birga qurolsiz aholiga hujum qilib, yigirma beshming ayol va erkaklarni, bolalarni o'ldirtirdi. Amir Olimxondan yordam olgan Ibrohimbek ancha o'zini o'nqlab, tezda yig'ilgan o'n ming askar bilan Ko'lob hamda Baljuvonnig egalladi. Keyin esa Qorategin va Darvozga hujum qilib, u hududlarni ham ruslardan ozod qildi. O'zining birodarlari orqali erishgan g'alabalari haqida Kobulda turgan Said Olimxonga xabar berib turdi. Bundan xabar topgan amir mamnun bo'lib, urushni davom ettirishlarini, ularga qurol-yarog'lar yuborib yordam berib turishini ma'lum qildi. Buxoroliklar ruslar bilan qonli urushlarni davom ettirib Hisorni egallashdi va bu yerdan ko'plab qurollarni o'lja sifatida qo'lga kiritishdi. Bundan xabar topgan Said Olimxon o'z vakillari orqali Kobuldan bu g'alaba evaziga ularga nishon va mansablar yubordi. Ularning botirligi va jasoratligidan mamnun bo'lib, ulardan roziligi haqida maktublar yuborib, ularni shunday mardonovor kurashishda davom etishga chorladi.¹²

¹⁰ Gulseren Doğan 1917-1924-yillari arasinda Turkistan milli devletleri. Elaziğ, 2018. 94-bet

¹¹ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 124-bet

¹² Ensar Göçmeza Afganistan'dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 47-bet

Farg'onada Madaminbek o'zining yetti ming lashkari bilan bolsheviklarga qarshi jangga kirdi. Biroq mag'lubiyatga uchrashdi. 1922-yilda o'zi tashkil qilgan qo'shin bilan Anvar poshsho ishtirokida jang olib bordi. Ibrohimbek dastlab Turkiyadan kelgan Anvar Poshshoga ishonmadi. Chunki Anvar Poshsho Buxoroga kelishdan avval Lenin huzurida Moskvada bo'lgan edi. Biroq Amir Olimxonning buyurug'idan keyin unga ishonch bildirib birga janglarga kiradi. Natijada tez orada ruslarga zarba berib, ko'plab hududlarni ozod qilishdi. G'ijduvondagi harakatlardan keyin Ibrohimbek Olimxonning Buxoroga qaytishi uchun qulay shart-sharoit vujudga keldi deb hisoblab, sakkiz kishidan iborat hay'atni Buxorodan Kobulga, Omonulloxon huzuriga jo'natib, Buxoro amiri Olimxonni Buxoroga jo'natishini so'radi. Shu orada Anvar poshsho Said Olimxonga maktub yo'llaydi. Unda, Boysunga hujum qilgan bo'lsalarda, bu hudud hanuzgacha qo'lga kiritilmagan va to'la egallanmagan edi. Shu sababli ham amirning Buxoroga qaytmasligi kerakligini takidlab, Omonulloxon Said Olimxonning Buxoroga qaytishini also xoxlamas edi. Shu boisdan ham maktubda yozilganlarini asos qilib, amirning Buxoroga qaytishini man qildi. 1922-yil 14-avgustda Anvar Poshsho Sharqiy Buxoroda joylashgan Baljuvonda vafot etdi. Zamondoshi Davlatmandbek jang maydonida xalok bo'ldi. Har ikkalasi ham Hazrat Sulton ziyoratgohida dafn qilindi. Amirning Buxoroga qaytayotganligidan xabar topgan ruslar amirning qaytishiga to'sqinlik qildilar. 1925-yil o'rtalarida ruslar to'p, tanklar bilan buxoroliklarga qarshi kurash boshladi. Ibrohimbek ularga qarshi mardonovor kurash olib bordi.¹³

Ibrohimbek tunda to'satdan hujum qilib, ruslarning 1800 dona beshotari, 3 mingta miltig'ini olib, ikki dushman samolyotini urib tushurdi. Bu bilan dushmanga katta talafot yetkazdi. Bu haqida Kobulga Said Olimxonga ma'lumot yetkazildi. Biroq strategik markaz bo'lgan Boysun hamon ruslar qo'l ostida edi. Ibrohimbek Boysunni zabt etish Buxoroni zabt etishiga yo'l ochishini yaxshi bilar edi va shu bois Boysunni ishg'ol qilishga kirishdi. Ibrohimbekka har tomondan yordam kuchlari kela boshladi. Ayni damda Omonulloxon Said Olimxonga ruslar jang harakatlarini Amudaryo qirg'og'igacha yurish qilib, Afg'onistonni ham olishi mumkinligini, shu bois Ibrohimbekka maktub yo'llab, ruslarni Amudaryoning bu qirg'og'iga o'tkazmasligi lozimligini bildirdi. Amir Olimxon zudlik bilan Ibrohimbekka chopar yuborib, o'z maqsadini yetkazdi. Natijada Ibrohimbek o'z qo'shinini ikko qismga bo'lib, bir qismini Boysunga, o'zi rahbarligidagi guruh bilan esa Amudaryo sohiliga kelib, ruslar hujum qilishini kutadi. Qirq kun kutgach, ruslar hujum qilmagach Boysunga harakatlandi. Biroq yo'lda rus qo'shinlariga duch kelib, to'satdan qilingan hujum natijasida Ibrohimbek katta talofat ko'rdi. Ruslarning 25 ming otliq askar hujumidan keyin 1926-yil 21-iyulda bir guruh hamrohlari bilan Amudaryodan o'tib, Said Olimxon

¹³ Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Egmont Yay. Istanbul, 2009. 89-bet

bilan uchrashdi. Afg'oniston davlati tomonidan unga 550 afg'on maosh tayinlandi. Xabibulloxon hokimiyat tepasiga kelguniga qadar Mulla Ibrohimbek qal'ai Fotuhda Said Olimxon bilan birga istiqomat qildi. Bu faoliyat 1929-yilgacha davom etdi.¹⁴

Said Olimxon Kobulda o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" nomli esdaliklarini kitob holiga keltirdi. Bu memuar asar hamda Millatlar Ligasiga yozgan bayonoti uning ishonchli vakili general Hoji Yusufbek Muqimboy o'g'li tomonidan 1927-yil sentabrda Jenevadagi tashkilotga yetkazildi. Said Olimxon tomonidan tayyorlangan bu hujjat jahon xalqlarini xayratga soldi. Fransiya, Germaniya, Italiya, Angliya, Eron va boshqa davlatlarda bu hujjatlar qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

Said Olimxon 1920-yil sentabrda poytaxtni tark qilar ekan nafaqat davlat xazinasini, balki haramini ham shaharda qoldirishiga to'g'ri keldi. Uning qolgan butun qarindoshlari, jami 118 kishi Xoja Orif (hozirgi Shofirkon) da ruslar tomonidan asir olinib, Buxoro shahridagi Xurjun madrasasida uy qamog'ida tutildi. Biroq yangi hukumat ularga hech qanday ozor yetkazmadi. Olimxonning 3 farzandi asirlikda qoladi, qolgan farzandlari Afg'onistonda dunyoga keladi. Hatto o'zi merosxo'r qilib tanlagan o'g'li Umarxon ham 1925-yilda Afg'onistonda tug'ilgan. Biroq bolsheviklarga asir tushgan amirning katta o'g'illari Afg'onistonga kela olmasligi Olimxon uchun ham, xonadon a'zolari uchun ham muammoli edi. Chunki Olimxon kurashda yordam bera oladigan o'g'illaridan mahrum edi.¹⁵

Bolsheviklar uch o'g'il Said Sultonxon, Said Shoxmurodixon va Said Raximxon hamda ikki jiyani Said Raxmatullo va Said Sayfiddinlarni turli usullar orqali qiynaydi. Inqilobchilar Buxoroga kiringach, Buxoro amirining uch nafar begunoh farzandini tungi soat uchdan ertalab soat o'n birgacha Devonbegi masjidida turg'uzib qo'yadi. Soat o'n birda ruslar hamrohligida shahar tahqirona, oshkora aylantirib, yana o'z joyiga olib borishdi. Begunoh bolalar ochlikdan, xastalikdan yig'lab, azob chekishdi. Uch oylik jismoniy va ruxiy jazolashlardan keyin, Said Olimxon farzandlari Moskvaga olib borib o'ldirildi.¹⁶

Biroq, 1932-yil Amir Olimxon Afg'oniston tashqi ishlar vazirligi orqali Rossiyadagi elchi Muhammad Azizxonga maktub yuborib, Moskvaga jo'natilgan uch o'g'lini topib, ularni qutqarishga yordam berishini so'raydi. Olimxon bu masalada xalqaro Qizil xoch va Qizil yarim oy jamiyatiga ham murojaat bilan chiqadi. Biroq uning bu boradagi harakatlari samarasiz bo'ldi. Amir Olimxon muhojirlikda yurt diydoriga sog'inchi hissi bilan yashadi. Uning Buxoroga qaytish to'g'risidagi murojaatlariga Rossiya hukumati rahbari I. V. Stalin rad javobini berdi. Umri oxirlarida Olimxon ko'zlari ojizlanib, xastalanib qoldi. 1944-yil 28-aprelda uzoq davom etgan

¹⁴ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 134-bet

¹⁵ Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Egmont Yay. Istanbul, 2009. 95-et

¹⁶ Gulseren Doğan 1917-1924-yillari arasinda Turkistan milli devletleri. Elazığ, 2018. 98-bet

xastalikdan 63 yoshida qal'ai Fotuda vafot qildi. Amir Olimxon vatandan yiroqda bo'lsada, dushman bilan kurashish qarorini o'zgartirmadi. Yetti yil mobaynida Buxoroning g'arbiy va sharqiy hamda shimoliy viloyatlarda ruslarga qarshi kurashayotgan kuchlarga Kobuldan turib qo'mondonlik qildi. Biroq uning niyati amalga oshmadi.¹⁷

Amir Olimxon Kobul yaqinidagi Shahidoni islom qabristoniga dafn qilindi. O'g'illari tomonidan qabri ustiga maqbara qurilib, marmartosh qilindi. Marmartoshga quydagi so'zlar bitildi: "Bu xazira Buxoroi Sharifda hukmronlik qilgan, mang'itlar sulolasining yettinchi vakili amir Said Olimxon ibn Said Abdulahadxon ibn amir Said Muzaffarxon ibn Said Nasrulloxon ibn amir Said Haydarxon ibn amir Shohmurod ibn amir Doniyolxonnikidir. Marhum hukmronligining o'ninchi yili Buxoroi Sharif bolsheviklar tomonidan egallandi va u qo'shni Afg'oniston tuprog'ida muhojir bo'lib shu yerdan panohtopdi. Bu yerda yigirma uch yil yashab, hijriy 1363-yil 64 yoshida olamdan o'tdi. Haq taolo uning ruhini o'z rahmatiga olsin. Omin!"¹⁸

Olimxon o'g'illari taqdiri fojiali tugadi. Sovet rejimiga nisbatan nafratini yaqqol namoyon qilgan kenja o'g'il Abdurahimxon 1937-yil josuslikda ayblanib, o'ldirildi. Katta o'g'il Sultonxonning bir oyog'i nogiron bo'lib, qamoqqa olindi hamda o'sha yerda vafot etdi. O'rtancha o'g'il hisoblanmish Shohmurodning taqdiri esa, o'zgacha kechdi. Yuqorida keltirib o'tganimizday Shohmurod "Известия" gazetasida 1929-yil 16-iyunda otasidan voz kechganligi haqida e'lon qilishga majbur bo'lganidan so'ng, Moskvadagi injenerlik akademiyasida ta'lim oladi. Keyinchalik u otasi singari "general" unvoniga sazovor bo'ldi. Shohmurod Ikkinchi jahon urushida ishtirok etdi va 1985-yil 75 yoshida Moskvada vafot qildi.¹⁹

Said Olimxonning Afg'onistonda 90-yillar boshida ikki nafar zavjasi, o'n ikki nafar o'g'li va o'n nafar qizi tirik edi. Olimxon vafotidan keyin bu hudda sulolaga g'amxo'rlik qiladigan rahbar yetishmas edi. Olimxon o'rniga 19 yoshga to'lgan Umarxon rahbar deb e'lon qilingan bo'lsada, sulola parchalanishiga to'sqinlik qila olmadi. Marxum Buxoro amiri o'z xazinasini Afg'onistonga olib kelmadi. Uning ulug' xislatlaridan biri do'stlari, davlat arboblari, miskinlarga sovg'a ulashish edi. Bisotidagi mablag' vafotidan keyin oilasini ta'minlashga yetmasligini yaxshi bilar edi. Afg'on hukumati Olimxon vafotidan so'ng uning oilasi uchun quydagicha maosh belgilandi:

1. Har bir uylangan o'g'li uchun-290 afg'oni
2. Har bir uylanmagan o'g'li uchun-240 afg'oni
3. Har bir turmushga chiqqan qizi uchun-140 afg'oni
4. Har bir akasi uchun-240 afg'oni

¹⁷ Ensar Göçmeza Afganistan'dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 51-bet

¹⁸ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. İstanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 144-bet

¹⁹ Gulseren Doğan 1917-1924-yillari arasinda Turkistan milli devletleri. Elaziğ, 2018. 112-bet

5. Onasi uchun-240 afg'oni
6. Har bir xotini uchun-140 afg'oni
7. Beva qizlari va ularning o'g'illari uchun-240 afg'oni²⁰

Biroq Afg'oniston hukumati Olimxonning Afg'onistonda dunyoga kelgan vorislarini ham ajnabiy deb hisoblab, bir qancha cheklovlar o'rnatdi. Ular ta'lim olish huquqidan mahrum etildi. Xonadon a'zolari o'zlarini afg'on hisoblasalarda, biroq afg'onlarga beriladigan huqulardan, imkoniyatlardan mahrum etilgan edi. O'zlari uchun uy hamda yer sotib olish huquqidan mahrum edi. Safarga chiqish hamda Afg'oniston shimoliga o'tish ham Olimxon vorislariga taqiqlandi.²¹

Olimxon vafotidan keyin sulola a'zolari va boshqa muhojirlar qal'ai Fothuda yashashni davom ettirdilar. Biroq, bir muncha vaqt o'tgach, aholi o'rtasida moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. Yashash joyini sotishda ham bir qancha muammoga duch kelishadi. Sababi, Afg'oniston podshosi Omonullaxon davrida ularning qarorgohi uchun ajratilgan qal'ai Fotuhdaning mulk hujjati berilmagan va amir vafot etgach, uning farzandlari bu hududga da'vo qilolmay qoldi. Uni 3000 afg'on puliga topshirib yuborishdi. Sulola a'zolari Kobuldagi uyni ham sotishga majbur bo'lishda va shu voqeadan keyin ular tarqalib ketishdi. Chunki sulola a'zolari fuqarolikdan mahrum bo'lib, faqat qochqinlik guvohnomasi berilganligi sababli ular davlat tomondan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlardan foydalana olishmagan.²²

Umarxon Zohirshoh hukumatiga sulola a'zolari va muhojirlarning og'ir ahvolini o'ylagan holda ularni ta'minlay oladigan pul va uy talab qilib noma yuboradi. Bu davrda hukumat Qandahor viloyatidan dehqonchilik uchun bir qancha yerlar ochib, xalqqa topshirayotgan edi. Umarxon 8 kishilik delegatsiya bilan borib yer sotib olishga harakat qiladi. Biroq, bu hudud Pokiston chegarasiga juda yaqinligi sabab, hukumat sulola vakillarining iltimosini rad etdi. Doniyor Muhammad Yusufxon bosh vazirligi davrida Afg'onistonda demokratik islohotlar davri bo'ldi. Ayni shu davrda Amir Olimxonning oila a'zolari o'z ahvollari haqida Afg'oniston vaziriga murojaat bilan chiqdi. Bu harakat natijasida Olimxonning Afg'onistonda tavallud topgan farzandlari va yaqinlarining Afg'oniston fuqaroligi tan olindi. Bosh vazir Muhammad Yusufxon lashkargohdagi to'quv dastgohlarini ko'zdan kechirish uchun ketganida, Said Mansur Olimiy fabrikada muhandis sifatida faoliyat yuritgan. U bosh vazirga bir guruh movarounnahrlik muhojirlar va Hamadon qal'asida yigirma olti yildan beri tutqunlikda hamda faqirlikda hayot kechirayotgan general Ibrohimbek oila a'zolarining arizalarini topshirdi. Ushbu holatdan keyin ularning Afg'onistonda erkin harakat qilishi va

²⁰ Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Egmont Yay. Istanbul, 2009. 124-bet

²¹ Gulseren Doğan 1917-1924-yillari arasinda Turkistan milli devletleri. Elaziğ, 2018. 119-bet

²² Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. Istanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 154-bet

faoliyat yurishi mumkinligi to'g'risida vazir farmoni e'lon qilindi. Bu Afg'oniston hukumatining ijobiy ishlaridan biri edi.²³

Olimxonning avlodlari Turkiyaning G'oziantib shahrida, AQSH, Germaniya, Afg'oniston, Pokiston, Saudiya Arabistoni va Eronda istiqomat qilgan. Uning o'g'illari 1993-yil Buxoroga kelib, ziyorat qilib ketishdi. Amir Olimxonning Afg'onistonda 1931-yil tug'ilgan ayni paytda Turkiyada yashayotgan o'g'li Said Mansur Olimiy fors tilida "Buxoro-Turkiston beshigi" (1196) nomli asar yozdi. Asarda mang'itlar sulolasi hukmdorlari, jumladan, otasi Amir Said Olimxon xususida nodir ma'lumotlar keltiriladi. Said Olimxonning qizlaridan biri, "Amerika ovozi" radiosining direktori Shukriyaxonim 2006-yil 26-oktabrda Nyu-Yorkda 98 yoshida vafot qildi. Amir Olimxonning xotiralari dastlab, Parijda 1929-yilda fransuz tilida chop etildi. Yurtimizda esa, dastlab fors tilida bitilga xotiralari "Buxoro xalqining hasrati tarixi" nomi bilan o'zbek va rus tillarida 1991-yil Toshkentda nashr qilindi. 1992-yili Tojikistonda tojik tilida nashr qilindi.²⁴

Xulosa qilib aytganda, Turkiya tarixchilari tadqiqotlarida bu davr arxiv ma'lumotlari hamda Said Olimxonning Turkiyadagi avlodlari tomonidan aniq qilib ochib berildi. Olimxon haqidagi mavhum qarashlar, uning Buxoroni tark etish jarayonidagi turli xil uydurmalar, Afg'onistondagi faoliyati aniq faktlar asosida o'rganilganiga guvoh bo'lamiz. Shunisi quvonarliki, yurtimiz tarixi, ajdodlarimiz faoliyati bugun turli davlatlarida tadqiq qilinmoqda va yangi qirralari ochib berilmoqda.

²³ Ensar Göçmeza Afganistan'dan gelen Göçmen Özbeklerin Sosyo-Kültürel ve Dini Hayatları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Hatay İli Ovakent Beldesi Örneği) (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Konya, 2009. 59-bet

²⁴ Nurettin Hatunoğlu Türkistanda son Türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. İstanbul, Ötüken Neshriyat, 2016. 229-bet